

Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash tartibi haqida

YO'RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo'riqnoma ichki ishlar organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash (keyingi o'rinlarda – reyting baholash) tartibini belgilaydi.

2. Reyting baholash ichki ishlar organlari xodimlari (keyingi o'rinlarda – xodimlar)ning korruptsiyaga qarshi kurashish borasida olib borayotgan faoliyati samaradorligini puxta tahlil qilish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida o'tkaziladi.

3. Ichki ishlar organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimi va korruptsiyaning oldini olish bo'yicha boshqa xalqaro standartlarning samarali joriy etilganligi hamda amaliyotga tatbiq qilinganligi reyting baholashning ob'ekti hisoblanadi.

4. Reyting baholash korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Ichki ishlar vazirligi komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) tomonidan tashkil etiladi.

2-bob. Reyting baholash yo'nalishlari va indikatorlari

5. Ichki ishlar organlarida reyting baholash alohida mezonlardan tashkil topgan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

birinchi yo'nalish – korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizmni amaliyotga tatbiq etilganligi;

ikkinchi yo'nalish – korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchi yo'nalish – rahbarlarning korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to'rtinchi yo'nalish – xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchi yo'nalish – korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi;

oltinchi yo'nalish – xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha oldi olingan, aniqlangan hamda fuqarolar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning fosh etilganligi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” toifalarga ajratiladi.

Bunda, mezonlarni bajarish orqali:

81 balldan 100 ballgacha to'plagan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligi – “yaxshi”;

55 balldan 81 ballgacha to'plagan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligi – “qoniqarli”;

55 dan past ball to'plagan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligi – “qoniqarsiz” deb topiladi.

7. Reyting baholash yo'nalishlari bo'yicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:

birinchi yo'nalish – maksimal 20 ball;

ikkinchi yo'nalish – maksimal 20 ball;

uchinchi yo'nalish – maksimal 15 ball;

to'rtinchi yo'nalish – maksimal 20 ball;

beshinchi yo'nalish – maksimal 15 ball;

oltinchi yo'nalish – maksimal 10 ball.

8. Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan reja-dasturda belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan yakuniy ballar Reyting baholash yo'nalishlari va mezon ko'rsatkichlaridagi ballarni bir-biriga qo'shish orqali aniqlanadi.

3-bob. Reyting baholashni amalga oshirish tartibi

9. Komissiya har yili 15 yanvarga qadar reyting baholashdan o'tkaziladigan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarining ro'yxatini tuzadi hamda bu haqda ularni xabardor qiladi.

10. Vazirlikning tarkibiy hamda hududiy ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishchi guruh (keyingi o'rinlarda – ishchi guruh)lari tomonidan har chorakda choraklik ma'lumotlar, yil yakunida esa yillik ma'lumotlar Reyting baholash yo'nalishlari, ko'rsatkichlar jadval va axborot tarzida Komissiyaga yuboriladi.

Bunda, ushbu ma'lumot va jadvalning to'g'ri to'ldirilganligiga ishchi guruh rahbarlari javobgar hisoblanadi.

12. Komissiya muntazam ravishda ishchi guruhlar tomonidan yuborilgan ma'lumotlarni tahlil qilib boradi, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilishi mumkin bo'lgan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlariga uslubiy yordam ko'rsatadi.

13. Ishchi guruh har yili Komissiyaning xatini olgandan so'ng, ushbu Yo'riqnomaga muvofiq belgilangan muddatlarda zarur ma'lumotlar va hisobotlarni yuboradi.

Bunda, Komissiyaga maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatga ega, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda yuboradi.

14. Yillik ma'lumotlar kiritilgandan so'ng Komissiya har yili:

20 yanvarga qadar tanlov asosida ishchi guruh tomonidan yuborilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini o'rganadi.

15. Ma'lumotlarning haqqoniyligini o'rganish jarayonida noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar yuborilganligi aniqlangan taqdirda, bu haqida Komissiya raisiga axborot beriladi.

16. Reyting baholash natijalari hisoblab chiqiladi va Komissiya raisiga axborot beriladi.

4-bob. Reyting baholashni amalga oshiruvchi guruh faoliyatini tashkil etish tartibi

17. Reyting baholash natijalarining xolisligini ta'minlash maqsadida har yili 3 kishidan iborat Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi guruh (keyingi o'rinlarda – guruh) shakllantiriladi.

Guruh tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish, shu jumladan ularni tanlab olish mezonlari, ularning majburiyatlari va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlarini nazarda tutuvchi tartib Komissiya tomonidan belgilanadi.

18. Guruh tarkibi Komissiya tomonidan ichki ishlar organlarining takliflariga asosan shakllantiriladi.

Guruh tarkibiga, qoida tariqasida, korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida ishlab kelayotgan xodimlar, shu jumladan amaliy tajriba va ichki ishlar organlari tizimida yuqori obro'ga ega xodimlar kiritiladi.

Bunda, guruh tarkibida kamida 1 kishi Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi vakili bo'lishi lozim.

19. Guruh ichki ishlar organlarining ishchi guruhi tomonidan yuborilgan hisobotlar va ma'lumotlar asosida shakllantirilgan dastlabki natijalarni ko'rib chiqadi.

Bunda, ishchi guruh tomonidan yuborilgan ma'lumotlar va hisobotlarda bir-birini inkor qiluvchi ma'lumotlar aniqlanganida bu bo'yicha ulardan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilib olishga haqli.

20. Guruh har yili 20 yanvarga qadar dastlabki tayyorlangan reyting baholash natijalari bo'yicha hisobotlarni ko'rib chiqish uchun Komissiyaga taqdim etadi:

21. Guruhda qabul qilingan qarorga qo'shilmagan guruh a'zosi o'z fikrini alohida bildirish huquqiga ega.

22. Komissiya guruh tomonidan taqdim etilgan xulosa yoki muqobil reyting baholash natijalarini har yili 25 yanvarga qadar puxta tahlil qiladi, unga ko'ra yakuniy baholash natijalarini shakllantiradi va bu haqda Ichki ishlar vaziriga axborot taqdim qiladi.

23. Komissiyaning reyting baholash yakunlariga ko'ra korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" deb topilgan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlari Vazirlik rahbariyati huzurida muhokama qilinadi.

5-bob. Reyting baholash yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar

24. Komissiya tomonidan reyting baholash yakunlari bo'yicha korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "yaxshi" deb topilgan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarining ijobiy ish tajribasini ichki ishlar organlarida ommalashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, Komissiya tomonidan "yaxshi" deb baholangan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlariga ularning korruptsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tarkibiy bo'linmalari xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritib boriladi.

25. Reyting baholash natijalariga ko'ra korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "qoniqarli" deb topilgan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlariga samaradorlikni yanada oshirish bo'yicha Komissiya tomonidan har yili 1 fevralga qadar tavsiyalar kiritiladi.

Komissiya tomonidan kiritilgan tavsiyalar va qarorlarni ishchi guruh bajarishi va bu haqda Komissiyaga axborot berishi lozim.

26. Korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "qoniqarsiz" deb topilgan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlari har yili 30 yanvarga qadar korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishi va uni Komissiya bilan kelishilgan holda tasdiqlashi lozim.

27. Ketma-ket ikki yil davomida korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "qoniqarsiz" deb topilgan tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlari rahbarlariga belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik choralari qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

28. Ushbu Yo'riqnoma talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

29. Komissiya, zarurat bo'lganda, reyting baholashning qo'shimcha yo'nalishlari va mezon ko'rsatkichlarini kiritishi mumkin.

